



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-mart

ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Andijon viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri sanoat hisoblanadi. Chunki, sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o'stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Sanoat mahsulotlarining eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, fizik hajm indeksi* **111,3 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash * **53,2 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash * **120,0 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari fizik hajm indeksi* **100,4 %** ni tashkil etdi.

Qisqacha ma'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarish hajmi
8592.3 mlrd.so'm.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmi **6379,7 mlrd. so'm .**


Sanoat ishlab chiqarishda kichik
biznesning ulushi **19,5 %** ni

Iste'mol tovarlarning jami sanoat
ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2020-yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi.

Sanoatni umumiy hajmiga nisbatan ulushi



Sanoat ishlab chiqarish tarkibi va hajmlari




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **24,8** mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Neft, ming t.	15.72	0.02	-15.7
Gaz qazib chiqarish , mln. kub. m.	13.24	42.75	29.51

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **8411,5** mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,9 %** ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip, tonna	5326.1	6341.4	1015.3
O'simlik yog'i , tonna	4412.7	1606.0	-2806.7
Bugdoy uni, tonna	32025.0	40751.0	8726
Aroq, ming litr	215.5	170.0	-45.5
Avtomobil bamperlari, dona	549021	880068	331047
Avtomobil diskalari, tonna	1417	1896	479
Avtomobil o'rindiqlari, komplekt	318058	517811	199753
Ho'jalik sovuni 60% li, tonna	301	325	24
Iste'mol spirt, ming litr	2326	3155	829

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishi





«O'simlik yog'i» tonna



«Yigirilgan ip» tonna



«Bugdoy uni» tonna




«Aroq» ming litr

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi ulushi

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 62,6 % ulushini, Andijon shahri 15,9 %, Honobod shahri 3,3 %, Andijon tumani 2,0 %, Oltinko'l tumani 2,1 %, Shahrixon tumani 2,3 %, Qo'rgontepa tumani 1,4 %, Xo'jaobod tumani 1,3 %, Jalaquduq tumani 1,2 %, Baliqchi tumani 1,4 %, Bo'ston tumani 1,0 %, Pahtaobod tumani 1,1 %, Izboskan tumani 1,5 %, Marhamat tumani 1,0 %, Buloqboshi 1,0 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Ulug'nor (0,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi ulushi % da




*2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida
jami sanoat ishlab chiqarish hajmi mlrd.so`m .*

	2020-yil yanvar-mart mlrd. so`m	Fizik hajm indeksi, % da
Andijon viloyat bo'yicha	8592,3	110,8
Andijon shahar	1365,7	116,3
Honobod shahar	285,2	117,9
Tumanlar		
Andijon	175,1	101,6
Asaka	5387,2	112,0
Baliqchi	118,6	101,6
Buloqboshi	81,9	135,6
Bo'ston	82,6	207,7
Jalaquduq	101,4	101,0
Izboskan	127,5	102,0
Ulugnor	79,2	126,5
Marhamat	88,3	103,3
Oltinko'l	176,3	105,9
Pahtaobod	90,6	135,3
Xo'jaobod	112,2	101,8
Shahrixon	197,2	103,3
Qo'rgontepa	123,2	114,7

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2020 yilning yanvar-mart oylarida jami 8592,3 mlrd. so`mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 5387,2 mlrd. so`mni, Andijon shahrida 1365,7 mlrd. so`mni, Honobod shahrida 285,2 mlrd. so`mni, Andijon tumanida esa 175,1 mlrd. so`mni tashkil etdi .

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **135,3** mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektr-energiya, mln.kvt/s	39.6	21.96	-17.6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	7.6	12.9	5.3
Elektr-energiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	53.2	100.8	47.6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **20,7** mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ni tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Қайта фойдаланишга яроқсиз бошқа ҳавфсиз чиқиндиларни йиғиш бўйича хизматлар, млрд.сум	3,8	4,9	1,1
Сувга ишлов бериш ва сув билан таъмирлаш бўйича хизматлар, млрд. сум	9,4	11,8	2,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora - tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **6379,7** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **113,9** % ni , ja'mi sanoatdagi ulushi esa **74,2** % ga yetdi.

2020 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari


ishlab chiqarish hajmi 6379,7 mlrd.so'm



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulot-

Yanvar –mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,% da




*2020-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati*

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sishi, %
Andijon viloyat bo'yicha	6379,7	100,0	113,9
Andijon shahar	299,2	4,7	104,1
Honobod shahar	28,6	0,4	109,0
Tumanlar			
Andijon	74,2	1,2	103,6
Asaka	5242,6	82,2	115,2
Baliqchi	72,0	1,1	105,6
Buloqboshi	46,7	0,7	106,0
Bo'ston	34,2	0,5	122,6
Jalaquduq	60,6	0,9	108,1
Izboskan	54,0	0,8	108,9
Ulug'nor	20,1	0,5	102,1
Marhamat	55,0	0,9	112,5
Oltinko'l	101,6	1,6	118,4
Pahtaobod	46,1	0,7	105,6
Xo'jaobod	73,1	1,1	103,4
Shahrixon	97,4	1,5	105,9
Qo'rgontepa	74,4	1,2	131,4

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 19,5 % tashkil etmoqda.

2020-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (100,0 %), Bo'ston tumanida (100,0 %) va Ulug'nor tumanida (100,0 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (1,8 %), Honobod shahrida (10,1 %) kuza-


*Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-mart oylarida ,ming so'm)*

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Andijon viloyat bo'yicha	2741,9	2035,9
Andijon shahar	3084,9	675,9
Honobod shahar	6694,3	672,3
Tumanlar		
Andijon	667,3	282,9
Asaka	16504,8	16061,8
Baliqchi	594,0	360,5
Buloqboshi	576,3	328,7
Bo'ston	1150,3	475,9
Jalaquduq	547,8	327,3
Izboskan	538,4	227,9
Ulugnor	1333,6	338,5
Marhamat	512,3	318,9
Oltinko'l	996,1	574,2
Pahtaobod	471,7	240,0
Xo'jaobod	1022,6	665,9
Shahrixon	661,4	326,7
Qo'rgontepa	572,7	345,6

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 16504,8 ming. so'm, Honobod shahrida 6694,3 ming. so'm, Andijon shahrida 3084,9 ming. so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 2741,9 ming. so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari 2020-yil yanvar-mart oylarida


Bugungi kunda Andijon viloyatida 6852 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan Andijon shahrida 2606 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 %), Asaka tumanida 800 tasi (11,7 %) va Andijon tumanida 573 tasi (8,4%) faoliyat ko'rsatib kelmoqda.



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda jami 470 ta yangi sanoat korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ulardan ko'p tash 122 tasi Andijon shahri, 43 tasi Shahrixon tumani, 52 tasi Asaka tumani, 20 tasi Oltinko'l tumani, 28 tasi Andijon tumani, 12 tasi Marhamat tumani, 26 tasi Qo'rgontepa tumani, 31 tasi Xo'jaobod tumani, 17 tasi Izboskan tumani, 22 tasi Jalaquduq tumani, 26 tasi Baliqchi tumani, 18 tasi Paxtaobod tumani, 13 tasi uoqboshi tumani, 19 tasi Bo'ston tumani, 16 tasi Honobod tumani va 5 tasi Ulug'nor tumanlariga to'g'ri keldi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1515,4 mlrd. so'mli mahsulot ishlab chiqarildi. O'tgan yilda qo'shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 14,9 % tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 17,6 % tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,3 % oshgan.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subektlari tomonidan 2020-yilning yanvar-mart oylarida 364,5 mlrd. somlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining o'sishi buyicha chora-tadbirlarning amalga oshirishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

<i>Mahalliyashtirish</i>	2020-yil yanvar-mart oylarida	2019-yil yanvar-mart oylarida
Loyihalar soni, birlik	246	62
Korxonalar soni, birlik	136	34
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	364,5	1345,8
Export qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollari	443,7	11,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	335	29

Andijon viloyat statistika boshqarmasining
sanoat statistikasi bo'limi.

Telefon: (+99874) 228-30-42